

**GLOBAL OZIQ-OVQAT ISROFI VA UNI KAMAYTIRISH
USULLARI**

Samadiy Marjona Fazliddinzoda

Toshkent kimyo-texnologiya instituti Shahrisabz filiali, Talaba

+998884041024 (samadiymarjona@icloud.com)

Annotatsiya: Mazkur maqolada global oziq-ovqat isrofi va uning sabablari, oqibatlar hamda muammoni kamaytirish bo'yicha samarali usullar ko'rib chiqilgan. Oziq-ovqat isrofining iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik ta'sirlari tahlil qilinib, ishlab chiqarish, transport va iste'mol jarayonlaridagi kamchiliklar asosiy omillar sifatida ko'rsatilgan. Shuningdek, uy xo'jaliklari, korxonalar va davlat miqyosida olib borilishi kerak bo'lgan chora-tadbirlar, jumladan, rejalashtirilgan xarid qilish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish va qonunchilikni takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar berilgan. Ushbu maqola oziq-ovqat sohasidagi isroflarni kamaytirishga oid ilmiy va amaliy bilimlarni boyitishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: ekologik ta'sir, global muammo, innovatsion texnologiyalar, iqlim o'zgarishi, isroflarni kamaytirish, ocharchilik, oziq-ovqat isrofi, oziq-ovqat xavfsizligi, yaroqlilik muddati

Oziq-ovqat isrofi bugungi kunda global miqyosda dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Jahon oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO) ma'lumotlariga ko'ra, har yili ishlab chiqarilgan oziq-ovqatning uchdan bir qismi (taxminan 1,3 milliard tonna) tashlab yuboriladi yoki isrof bo'ladi. Bu nafaqat iqtisodiy va ijtimoiy muammolarga, balki ekologik oqibatlarga ham olib keladi. Shu kabi o'ylamasdan amalga oshiriladigan isrofgarchiliklar insoniyat oldidagi eng katta muammolardan biriga aylanmoqda, deb hisoblaydi nyu-yorklik oshpaz Maks La Manna. U shu mavzuga bag'ishlangan «Ko'proq o'simlik, kamroq chiqindi» nomli kitobini yozgan. Maks La Manna «Bi-bi-si»ga bergan [intervyusida](#) ushbu muammoni hal qilish uchun har birimiz nima qilishimiz kerakligi haqida to'xtalib o'tgan.



«Ovqat bolalik chog'larimdan hayotimning muhim qismi bo'lib kelgan, axir mening otam bosh oshpaz edi. Ota-onam meni ovqat isrofiga yo'l qo'ymaslikka o'rgatishgan. Hozirgi kunda sayyoramiz aholisi deyarli 9 milliard kishini tashkil etadi, ularning 820 milliondan ortig'i to'yib ovqatlanish baxtidan mahrum. Oziq-ovqat mahsulotlarini isrof qilish insoniyatning eng katta muammolaridan biriga aylanib ulgurdi. Barcha oziq-ovqatlarning uchdan bir qismi shunchaki dalalarda chirimoqda yoki chiqindiga tashlanmoqda. Shu bilan birga, nafaqat oziq-ovqat, balki pul, suv, energiya, yer va transport isrof qilinadi. Siz chiqindi qutisiga tashlayotgan ovqat iqlim o'zgarishlariga ham ta'sir ko'rsatadi, chunki ularning aksariyati chirish jarayonida metan chiqadigan chiqindi tepalarga olib boriladi. Agar oziq-ovqatlarni alohida mustaqil davlat sifatida tasavvur qilsak, u issiqxona gazlari manbasi bo'yicha AQSh va Xitoydan keyingi uchinchi pog'onada borardi. Ammo siz bunga qarshi kurashga hissa qo'shishingiz mumkin», deydi u. Agar uyingizda keragidan ortiqcha non to'planib qolsa, uni sovutgichning muzxonasiga qo'ying.

Supermarket yoki boshqa turli do'konlarda eng chiroyli ko'rinishga ega bo'lmagan meva va sabzavotlarni xarid qiling. Ularning mazasi boshqalaridan qolishmaydi, ammo aksariyat insonlar ularni sotib olishni xohlamaganliklari uchun bu kabi mahsulotlar chiqindixonalarni to'ldiradi. Agar sizda imkoniyat bo'lsa, sarxil mahsulotlarni dehqonlarning o'zidan yoki dehqon bozorlaridan sotib oling.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish, oziq-ovqat mahsulotlarini iste'molchiga yetkazish oddiy jarayon emas. Buning uchun qanchadan-qancha odam ter to'kadi, vaqt, mablag' va katta resurslar sarflanadi. Ayrim davlatlar ortiqcha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarib, isrofgarchilikka yo'l qo'yayotgan bir paytda, ba'zi kambag'al mamlakatlar aholisi og'zi ovqatga yetmay, ocharchilikdan qiynalayotgani masalaning qanchalik dolzarbligidan dalolat beradi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining ma'lumotlariga qaraganda, bugungi kunda dunyoda 820 million odam ocharchilikdan aziyat chekmoqda. Vaholanki, dunyo bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlarining uchdan bir qismi turli sabablar bilan foydalanilmay, chiqindi sifatida tashlab yuborilyapti.



BMT Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti — FAO ma'lumotlarida qayd etilishicha, AQSHda yiliga har bir odam 115 kilogrammdan oziq-ovqat mahsulotlarini isrof qilyapti. Bu ko'rsatkich Yevropada 95, Afrika va Janubi-Sharqiy Osiyoda 7–11 kilogrammni tashkil etayotir. Ayonki, do'konlar muddati o'tayotgan oziq-ovqat mahsulotlaridan voz kechadi. Umumiy ovqatlanish muassasalari sotilmay qolib ketgan, odamlar esa sotib olgan yoki pishirgan taomlarining ortiqchasini tashlab yuboradi. Aslida ana shunday oziq-ovqat mahsulotlari va taomlarga muhtoj odamlar borligi esa inobatga olinmaydi.

BMTning bong urishicha, oziq-ovqat mahsulotlarining isrof etilishi va aynishining oldini olish dunyoda ocharchilikka qarshi kurashishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa fudshering tizimini dunyo miqyosida yo'lga qo'yishni va rivojlantirishni taqozo etmoqda.

Dunyodagi ilk fudshering-loyiha Germaniyaning Foodsharing.de platformasi bo'lib, 2012 yilda ishga tushirilgan. Ayni paytda Germaniya, Avstriya, Shveytsariya va boshqa Yevropa mamlakatlaridan 200 ming nafardan ziyod kishi mazkur onlayn-platformadan ro'yxatdan o'tgan. Shu bilan bir qatorda, Germaniyada 1,65 million nafar kishiga oziq-ovqat mahsulotlarini beg'araz yetkazib beradigan oziq-ovqat banklari ham mavjud

Fransiyada bir kishi yiliga 30 kilogramm oziq-ovqat mahsulotini isrof qilar ekan. Buning natijasida mamlakat har yili 12–20 milliard yevrogacha zarar ko'rmoqda.

Xususan, 2016 yilda Fransiyada supermarketlarning sotilmay qolgan, biroq iste'molga yaroqli oziq-ovqat mahsulotlaridan voz kechishini taqiqlaydigan qonun qabul qilingan. Unga muvofiq, savdo do'konlari sotilmay qolib ketgan mahsulotlarni yordamga muhtoj aholi vakillariga yetkazib berish yuzasidan xayriya tashkilotlari bilan shartnoma tuza boshladi.

Statistik ma'lumotlar shundan dalolat beryaptiki, Xitoyda har yili 35 million tonna oziq-ovqat mahsulotlari chiqindi sifatida tashlab yuboriladi. Shu bois, Xitoy parlamenti 2021 yilda oziq-ovqat mahsulotlarining isrof etilishiga qarshi kurashish bilan bog'liq qonun qabul qildi.



Ayrim davlatlarda, xususan, Belgiyada fudsheringga asoslangan muassasalar faoliyat ko'rsata boshladi. Ularda oziq-ovqat qoldiqlaridan sho'rvalar tayyorlab sotilmoqda. Daniyada esa Too Good To Go maxsus ilovasi ishga tushirilgan bo'lib, unda restoranlar, supermarketlarda sotilmay qolib ketgan mahsulotlar bo'yicha ma'lumot berib boriladi. Mazkur ilovadan Yevropaning 11 ta mamlakatida foydalanilmoqda. Bu orqali minglab kilogramm ovqat isrof etilishining oldi olinmoqda.

Xususan, O'zbekistonda 2021 yil 17 sentyabrda Vazirlar Mahkamasining "Qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat mahsulotlari yo'qotishlarini qisqartirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori qabul qilindi.

Ushbu qarorda tegishli vazirlik va idoralar bilan birgalikda xorijiy tajribani chuqur o'rgangan holda, respublikada oziq-ovqat mahsulotlari isrofgarchiligini kamaytirish, ushbu mahsulotlarni yig'ib olish va ularni xayriya tarzida tarqatish faoliyatini amalga oshiruvchi "Food Banking" tashkilotlari tizimini joriy etish belgilangan.

Hozirgi kunda oziq-ovqatlar isrof bo'lish sababa va oqibatlariga bir qator omillar sabab boladi. Misol qilib men bir nechtalarini keltirib o'taman. Ulardan biri ishlab chiqarish jarayonidagi muammolar, transport va logistikadagi muammolar, mahsulotlarning iste'mol qilinmay qolishi va ekologik ta'sirlar sabab bo'ladi. Ishlab chiqarish jarayonidagi muammolar da asosan hosildorlik jarayonida noto'g'ri yig'im-terim yoki saqlash sharoitlarining yomonligi sababli mahsulotlar yaroqsiz holga keladi. , Transport va logistikada uzoq masofaga yetkaziladigan oziq-ovqat mahsulotlarini saqlash yoki yetkaziz sharoitlariga moslashmagan bo'lsa buziladi. Mahsulotlarning iste'mol qilinmay qolishi restoranlar va uy xo'jaliklarida ovqatning ortib qolishi yoki muddati o'tib ketgan mahsulotlarning tashlanishi keng tarqalganligi sababli oziq-ovqatda muammolar yuzaga keladi. Tashlangan oziq-ovqat parchalanayotganda metan gazini chiqaradi, bu iqlim o'zgarishiga sezilarli hissa qo'shadi. Shu bilan birga isrof qilingan oziq-ovqat uchun sarflangan suv va yer energiya ham yo'qotiladi, bu esa ekologiya yomonlashishiga katta ta'sirni ko'rsatadi.



Dunyo boʻyicha oziq-ovqat chiqindilarining yildan- yilga ortib borishi

Dunyo boʻyicha oziq-ovqat isrofini kamaytirish uchun avvalo biz oziq ovqat mahsulotlarini ishlab chiqishda standartlarga javob beradigan texnologiyalardan foydalanishimiz va ishlab chiqarishdagi mahsulotlarga alohida eʼtibor qaratishimiz kerak. Shu bilan birgalikda biz kundalik tarzimiz uchun oziq-ovqat mahsulotlarini sotib olyotganimizda rejali isteʼmol qilishni oʻrganishimiz va xarid roʻyxatini oldindan tayyorlab kerakli miqdordagi mahsulotlarni sotib olishimiz zarur. Sotib olish jarayonida yaroqlilik muddatini diqqat bilan kuzatishimiz kerak va ortiqcha mahsulot sotib olishdan saqlanishimiz kerak. Hozirgi kunda dolzarb muammoga aylangan oziq ovqat isrofini kamaytirish muamosida mahalliy va xalqaro hamkorlar bilan ishlashimiz kerak. Turli xil chelenjlar va

Hamkorlik loyihalaridan biri bu BMTning “Zero Hunger” dasturi kabi oziq-ovqat xavsizligini taʼminlash dasturlarini qoʻllab quvvatlanib dunyoga tadbiq qilinyapti. Mahalliy hamjamiyatni safarbar qilish boʻyicha maktablarda doʻkonlarda va restoranlar bilan hamkorlikda oziq-ovqat isrofiga qarshi dasturlarni amalga oshirilib borilyapti. Bundan tashqari yer yuzida jamiyki insonlar oziq-ovqatni qadrlashdan boshlashi kerak. Uydagi xarajatlarni rejalash, qolgan mahsulotlarni tashlamaslik va kerak boʻlsa atrofimizdagi ehtiyojmandlarga berishni odat qilish kerak. Shu tariqa mahalliy harakatlar global oʻzgarishlarni keltirib chiqaradi.



Xulosa. Oziq-ovqat isrofi global iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik muammolarni chuqurlashtiruvchi omil bo'lib, bu har yili ishlab chiqarilgan mahsulotning uchdan biri tashlab yuborilishidan dalolat beradi. Ushbu muammo resurslarning samarasiz sarflanishiga, iqlim o'zgarishiga ta'sir qiluvchi gazlarning ko'payishiga va ocharchilik bilan kurashayotgan aholi sonining ortishiga olib kelmoqda.

Fransiya va Germaniya kabi mamlakatlarda qonunchilik va fudshering platformalari orqali isrofni kamaytirishga qaratilgan muhim qadamlar tashlanmoqda. O'zbekistonda ham xalqaro tajriba asosida yangi dasturlarni joriy etish boshlangan. Shu bilan birga, har bir fuqaro oziq-ovqatni rejalab sotib olish, saqlash qoidalariga rioya qilish va ortiqcha mahsulotni boshqa ehtiyojmandlarga ulashish orqali isrofni kamaytirishda bevosita hissa qo'shishi mumkin. Barcha darajalardagi sa'y-harakatlar natijasida mahalliy choralar global o'zgarishlarga zamin yaratishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. FAO. (2021). Food Loss and Waste Database. Food and Agriculture Organization of the United Nations. Retrieved from www.fao.org
2. WRAP. (2020). Reducing Food Waste: Global Trends and Opportunities. Waste and Resources Action Programme. Retrieved from www.wrap.org.uk
3. Gustavsson, J., Cederberg, C., & Sonesson, U. (2011). Global Food Losses and Food Waste – Extent, Causes and Prevention. FAO.
4. ReFED. (2021). Roadmap to Reduce U.S. Food Waste by 2030. Retrieved from www.refed.com
5. <https://yuz.uz/uz/news?category=Dolzarb>
6. <https://yuz.uz/uz/news/fudshering-oziq-ovqat-mahsulotlari-isrof-qilinishining-oldini-olishda-zamonaviy-yondashuv>
7. <https://kun.uz/news/2019/11/12/oziq-ovqatni-isrof-qilmaslik-uchun-qanday-yol-tutish-kerak-7ta-amaliy-maslahat>